

**ICHKI ISHLAR ISHLAR ORGANLARIDA HUQUQBUZARLIKLAR
PROFILAKTIKASINI REJALASHTIRISH VA AXBOROT-TAHLIL
FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH**

ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIYASI

3-O'QUV KURSI 322-GURUH KURSANTI

XAMROYEV BOBUR ORIF O'G'LI

ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIYASI

HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI FAOLIYATI KOFEDIRASI

o'qituvchisi SH.Z.NARZIYEV

ANNONTATSIYA

Ushbu maqolada ichki ishlar organlarida huquqbuzarlik profilaktikasini samarali tashkil etish, rejalashtirish tizimi, axborot-tahlil faoliyatining mazmuni, funksiyalari va uni modernizatsiya qilish yo'llari ilmiy asosda yoritilgan. Profilaktika ishlarida mahalla, ta'lim tashkilotlari, jamoatchilik, davlat idoralari bilan hamkorlik tizimi, axborot almasinuvi mexanizmlari va tahliliy pragnozlar yaratishning ahamiyati ochilib berilgan. Shuningdek, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellektning ichki ishlar tizimidagi o'rni va strategik ustuvor yo'nalishlari ko'rib chiqilgan.

KALIT SO'ZLAR

Huquqbuzarliklar profilaktikasi, jinoyatchilik, ichki ishlar organlari, rejalashtirish, axborot-tahlil faoliyati, xavf guruhlari, mahalla, kirminogen vaziyat, sun'iy intellekt, statistika, xavfsizlik, profilaktika inspektori, raqamlashtirish.

ABSTRACT

This article discusses the effective organization of crime prevention in internal affairs bodies, the planning system, the content, functions of information and analytical activities and ways to modernize them on a scientific basis. The importance of cooperation

with the neighborhood, educational organizations, the public, and government agencies in preventive work, information exchange mechanisms, and the creation of analytical forecasts are revealed. In addition, the role of digital technologies and artificial intelligence in the internal affairs system and strategic priorities are considered.

KEYWORDS

Crime prevention, crime, internal affairs bodies, planning, information and analytical activities, risk groups, neighborhood, kerminogenic situation, artificial intelligence, statistics, security, prevention inspector, digitalization.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются вопросы эффективной организации профилактики правонарушений в органах внутренних дел, система планирования, содержание и функции информационно-аналитической деятельности, пути её модернизации на научной основе. Раскрывается значение взаимодействия с местным сообществом, образовательными организациями, общественностью и государственными органами в профилактической работе, механизмы обмена информацией и формирования аналитических прогнозов. Кроме того, рассматривается роль цифровых технологий, искусственного интеллекта в системе внутренних дел, стратегические приоритеты.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Порганы внутренних дел, планирование, информационно-аналитическая деятельность, группы риска, местное сообщество, герминогенная ситуация, искусственный интеллект, статистика, безопасность, инспектор по профилактике, цифровизация.

Mamlakatda jinoyatchilikning barqaror kamayib borishi, ijtimoiy xavsizlikning mustahkamlanishi, qonun ustuvorligi va fuqarolarning huquqlarini himoya qilish tizimi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Bu jarayonda ichki ishlar organlari jamiyat xavfsizligining asosiy tayanchi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha yangi model shakillantirgan bo'lib, u quyidagi tamoyillariga asoslanadi.

- Oldini olishga qaratilgan tizimlik
- Tezkor va tahliliy yondashuv
- Jamoatchilik bilan sheriklik
- Raqamli texnologiyalarni keng joriy etish

Huquqbuzarliklarning preventiv nazorati samarali bo'lishi uchun ichi ishlar tizimida puxta rejalashtirish va axborot-tahlil faoliyatini takomillashtirish zarur. Chunki jinoyatchilik dinamikasi doimiy o'zgarib turadi, kriminogen omillar sharoitga qarab kuchayadi yoki sustlashadi. Bumday sharoitda profilaktika rejalari real vaziyatga mos bo'lishi muhim.

Huquqbuzarliklar profilaktikasining nazariy-huquqiy asoslari

Huquqbuzarlik profilaktikasi tushunchasi. Huquqbuzarlik profilaktikasi-bu huquqbuzarlik sodir bo'lishiga olib keluvchi omillarni aniqlash, bartaraf etish, xavf guruhlari bilan ishlash, ijtimoiy muhitni sog'lomlashtirish, fuqarolarda huquqiy ongini oshirishga qaratilgan tizimli va maqsadli choralardir.

Profilaktikaning maqsadi:

Huquqbuzarlik qilgan shaxslarni qayta ijtimoiylashtirish, jinoyat sodir etilishining oldini olish, xavfli holatlar va sharoitlarni bartaraf etish, jamoat tartibini ta'minlash

Normativ-huquqiy asoslar

Huquqbuzarlik profilaktikasi quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Huquqbuzarlik profilaktikasi to'g'risidagi qonun, jinoyat kodekisi, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun, Prezident farmonlari va hukumat

Bu hujjatlar profilaktika subyektlarning va vakolatli axborot almashinuvi tartibi, tahlil tizimi hamda hamkorlik faoliyatini belgilaydi.

Ichki ishlar organlarida profilaktika faoliyatini rejalashtirish tizimi. Xodimlar faoliyati muvofiqlashtiradi. Maqsadlarni aniq belgilaydi, xavfli hudud va shaxslarni ustuvor ravishda qamrab oladi, natijadorlikni monitoring qilish imkonini berdi.

Rejalashtirish tamoyillari

Ilmiy –tahlil, statistik ma'lumotlar va prognozlarga asoslanish. Manzillik-har bir hudud, mahalla, obyektning kriminogen holatiga mos choralar. Muvofiqlashtirish-profilaktika subyektlari o'rtasida hamkorlik. Uzluksiz-yil bo'yicha davomli tizim yaratish. Moslashuvchanlik-vaziyat o'zgarganda rejalarni yangilash.

Rejalarning turlari

Yillak kompleks rejalar, choraklik va oylik reja, hududiy profilaktika rejasi, xavf guruhlari bo'yicha individual reja, mahalla kesimidagi pasportlash rejalari, maxsus yo'nalishli rejalashtirish transport xavfsizligi, oilaviy zo'ravonlik, giyohvandlikka qarshi kurashish va boshqalar

Axborot –tahlil faolyati mazmuni va ahamiyati. Axborot-tahlil faoliyat tushunchasi. Axborot-tahlil faoliyati-bu jinoyatchilik to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, saqlash, tahlil qilish, prognoz yaratish va boshqaruv qarorlarining asosini shakllantirish jarayonidir. Axborot manbalari, "102" va murojaatlar portalidagi ma'lumotlar, profilaktika inspektorlarining elektron kartotekasi, mahalla tizimidan keladigan axborotlar, ta'lim muassasalari va korxonalarining ma'lumotlari, videokuzatuv tizimi, davlat idoralari bilan o'zaro almashinuv, ijtimoiy tarmoqlar va onlayn monitoring.

Tahlilning asosiy yo'nalishlari. Jinoyatchilik dinamikasi (oylik, choraklik, yillik) jinoyat xaritasi (GIS tizimi asosida jinoyatlarning subyektlari tahlili, keltirib chiqaruvchi omillarni tahlil qilish, yashirin jinoyatlarni aniqlash, "Xavfli hududlar"ni belgilash, prognoz qilish (Prediktiv tahlil) .

Axborot-tahlil faoliyatini takomillashtirishning yo'nalishlari. Raqamlashtirish jrayoni, hozirda ichki ishlar organlarida keng joriy etilayotgan elektron tizimlar. E-IBD- elektron jinoyatlar bazasi, E-Profilaktika-profilktika inspektorlarining elektron kartotekasi, Face-ID va Safe City kamera tizimi, ma'lumotlar almashinuvi platformalari, yagona statistika bazasi.

Sun'iy intellektdan foydalanish istiqbollari. Jinoyat sodir bo'lish ehtimolini prognozlash, jinoiy guruhlarini aniqlash, transport harakatini nazorat qilish, katta ma'lumotlar tahlilini avtomatlashtirish, real vaqt rejimida xavfli vaziyatlarni aniqlash.

Tahliliy hodimlarni tayyorlash. Statistik metodlar bo'yicha maxsus kurslar, SPSS, STATA, Exel, GIS, texnologiyalari bo'yicha o'quvlar, kriminologik tahlil, sun'iy intellekt bo'yicha malaka oshirish, axborot xavfsizligi bo'yicha sertifikatlash.

Mahalla tizimi bilan hamkorlik va manzilli profilaktika. Mahalla profilaktika inspektorining o'rni. Har bir xonadon bo'yicha pasport yuritish, nizoli oilalarni aniqlash, yoshlar bilan ishlash, jinoyatchilikka moyil shaxslar ro'yxati, ichki migratsiya monitoringi.

Xavf guruhlarini bilan manzilli ishlash. Muqaddam sudlanganlar, voyaga yetmaganlar, oilaviy nizoli shaxslar, siyrtli ichimlikka ruju qo'yganlar, giyohvandlikka moyil shaxslar, ishsiz va ijtimoiy himoyaga muhtojlar. Ular bilan individual profilaktika rejasi asosida ishlash natijadorlikni oshiradi.

Huquqiy tarbiya va jamoatchilik ishtiroki. Huquqiy madaniyatni oshirish.

- Maktab va OTMlarda huquqiy targ'ibot, yoshlar uchun treninglar, onlayn platformalarda huquqiy roliklar, mahalla yig'inlarida o'quv smenarlari.
- Jamoatchilik ishtiroki
- "Xavfsiz hudud" loyihasi, "Xavfsiz maktab" tashabbusi, ota-onalar bilan hamkorlik, tadbirkorlik subyektlari bilan sheriklik.
- Monitoring, hisobot, natijadorlik, ko'rsatkichlari.

Monitoring quyidagilarni o'z ichiga oladi. Jinoyatchilik darajasi bo'yicha ko'rsatkichlar, profilaktika choralari samaradorligi, xavf guruhlarini bilan ishlash darajasi, mahalla kesimidagi o'zgarishlar, elektron tizimlarning ishlash samarasi bunda hisobotlar asosida yangi rejalar shakillantiriladi.

XULOSA

Ichki ishlar organlarida huquqbuzarlikning oldini olishni rajalashtirish va axborot-tahlil faoliyatini takomillashtirish jamiyat xavfsizligini ta'minlashda hal qiluvchi

ahamiyatga ega. Zamonaviy tahliliy texnologiyalarni joriy qilish , mahalla bilan integratsiya, jamoatchilik ishtiroki, va tahliliy kompetensiyani oshirish –bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir.Bularning barchasi jinoyatchilikka qarshi kurashning samarali , ilmiy asoslangan va kompleks tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

- 1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi**
 - 2."Ichki ishlar organlari to'g'rosida"gi qonun**
 - 3."Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonun**
 - 4.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni: “ Ichki ishlar organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish to'g'risida”gi –PF-5005 son, 2017-yil 5-aprel**
 - 5.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori**
- “Huquqbuzarlik profilaktikasini tshkil etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”.**